

**O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, "Filologiya" fakulteti dekani, dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, M.F. Fayziyev taqrizi ostida**

**Rashidova Oynisa Xusniddin qizi**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Email: [aoynisaa@gmail.com](mailto:aoynisaa@gmail.com)

ORCID: 0009-0004-3470-5399

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL QILISH MEZONLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, bugungi kunda Oly ta'lismuassasalarida tubdan isloq qilinayotgan talabalar mustaqil ta'limi haqida so'z boradi. Shuningdek, mustaqil ta'larning talabalar faoliyatida qay darajada muhim ekanligi aytildi. Bundan tashqari mustaqil ta'limgi tashkil etish mezonlalari o'rganiladi va uni tashkil qilish talablari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Mustaqil ta'lismi, ijodiy fikrlash, mustaqil ta'limgi tashkil etish mezonlalari, mustaqil ta'limgi tashkil qilish talablari.

**Аннотация:** В данной статье говорится о самостоятельном обучении студентов, которое сегодня коренным образом реформируется в высших учебных заведениях. Также сказано, насколько важно самостоятельное обучение в деятельности студентов. Кроме того, будут изучены критерии организации самостоятельного образования и дана информация о требованиях к его организации.

**Ключевые слова:** самостоятельное образование, творческое мышление, критерии организации самостоятельного образования, требования к организации самостоятельного образования.

**Annotation:** This article talks about the independent education of students, which is being fundamentally reformed in higher education institutions today. It is also said how important independent education is in students' activities. In addition, the criteria for organizing independent education will be studied and information will be given about the requirements for its organization.

**Key words:** independent education, creative thinking, criteria for organizing independent education, requirements for organizing independent education.

### **Kirish.**

Oily ta'lismuassasalarida talabalar o'quv faoliyatining muhim shakli bo'lgan mustaqil ta'limgi tashqari va talab darajasida tashlil etilishi talabalarimizni o'zlarini tanlagan mutaxassisliklar bo'yicha yetuk raqobatbardosh kadr sifatida kamol topishida muhim o'rinni tutadi. Bu to'g'risida, prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev 2019-yil 8-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lismi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida aytib o'tadi. Ushbu konsepsiyaning "Oliy ta'lismi tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'naliishlari" deb nomlangan bobida "...ta'lismi jarayoniga raqamli texnologiyalar va usullarni joriy etish hamda mustaqil ta'lismi o'quv soatlari ulushini ko'paytirish, talabalarning mustaqil bilim olishi, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, ta'lismi jarayonini, o'quv jarayonini, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada ilg'or pedagogik texnologiyalardan, yangi innovatsion usul va vositalardan foydalananish" to'g'risida aytgan va buni ta'lismi tizimiga joriy etishni tayinlagan [1]. Shu sababli, ushbu maqolada talabalar mustaqil ta'limgi tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida so'z boradi.

Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mashhg'ulotlardan tashqari fanlar bo'yicha mustaqil shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirish mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lismi jarayonidagina shakllanadi, ularda mustaqil

faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi. Natijada talabalar mustaqil ishlarni bajarishi davomida ularda ijodiy izlanishga qiziqish paydo bo'ladi hamda ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllanadi va ijodiy ishlar olib borish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. N.A.Muslimovning fikricha, «Mustaqil ta'lim» – bilimlarni o'zlashtirish tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarini hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining sub'ektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir[2; 315].

Yuqoridagilarni nazarda tutib bugun talabalar faoliyatida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish ta'limning dolzarb masalasi hisoblanadi. Mustaqil ta'limning dolzarbligini quyidagi ta'rifdan ham bilishimiz mumkin. "Talabaning mustaqil ishi - auditoriya va auditoriyadan tashqari fan o'qituvchisining maslahat va tavsiyalari asosida muayyan fan bo'yicha o'quv rejasida ko'rsatilgan bilim, ko'nikma va malakalarining ma'lum qismini talaba tomonidan o'zlashtirishga qaratilgan tizimli faoliyatidir" [3; 74].

### **Materiallar va uslublar**

Mustaqil ta'limni dars, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, pedagogik va ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari bor. Mustaqil ta'lim qaysi shaklda bajarilishidan qat'iy nazar, talaba shaxsida bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi va u bo'lajak mutaxxis sifatida erkin fikrlash, kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashi asosida ijtimoiy faol malakali raqobatbardosh kadrler tayyorlashga qaratilgan. Mustaqil ta'limning ta'lim tizimidagi o'rni beqiyosdir. Agar biz oliy ta'lim muassasasida mustaqil ta'lim jarayoinini samarali tashkil etib, uni amalga oshira olsak yuqorida qayd etilgan maqsadimiz – zamon talabi darajasidagi, malakali, raqobatbardosh kadrni etkazib berishni to'la kafolatlay olamiz[4; 18]. Buning uchun mustaqil ta'limni tashkil etishning mezon va qoidalarini bilishimiz zarur. Mustaqil ta'lim jarayoni qanday amalga oshirilishi, uning rivojlanishi, o'zlashtirilgan bilimlar asosida mustaqil ta'lim faoliyati darajalarini quyidagi mezonlar bilan belgilash mumkin:

- maqsadga yo'naltirilgan, motivatsion muhitdagi mustaqil ta'lim;
- mustaqil tafakkur jarayonini ta'minlovchi ko'nikmalar;
- mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan ko'nikmalar.

Talabalar mustaqil ta'lim olishlari jarayonida qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qiladi, o'tilgan mavzularni qayta ko'rib chiqadi. Ko'pgina talabalar uyg'a berilgan ma'ruza matnlari ustida ishlaydilar, ma'ruzalar, referatlar tayyorlashda ilmiy-ommabop, davriy nashrlardan foydalanadilar.

Mustaqil bilim olish nazariyasiga muvofiq pedagogik mustaqil ishlarni ishlab chiqish qoidalari quyidagilardan iborat:

- pedagogik mustaqil ishlar haqiqiy pedagogik va ishlab chiqarish vaziyatlari bilan bog'liq muammolarga ega bo'lishi kerak;
- mustaqil ishlar asosini tashkil etuvchi muammoni hal etishning turli usullar (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish va boshqalar) yordamida amalga oshirish;
- mustaqil ishlarni bajarish isbotini aniqlash va talabalar ongida, hodisalar va jarayonlar o'rtasida mustahkam bog'liqlikni mustahkamlash asosida tushunchalarni yuzaga keltirish imkoniyatlarini ko'zda tutishi lozim;
- muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishning yaxlit ifodalangan yoki ifodasi topshiriq shartlarini tashkil etuvchi bir necha oddiy tushunchalardan sub'ekt tomonidan hali o'zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini beradi;

- muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar yoki sub'ektga ma'lum bo'limgan tushunchalar bir-biri bilan taqqoslanadi;
- tushunchalarni taqqoslashda sub'ekt fikrlashning turli: tahlil, sintez, solishtirish, taqqoslash, texnik ob'ektlar orasidagi umumiylilik, tipiklik va xususiylikni topish amallarini bajaradi;
- muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishda sub'ekt quyidagi amallarni bajaradi:
- tushunchalarning shakli va mazmunini o'zgartirmasdan qayta ishlab chiqadi;
- tushunchalar shaklini o'zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi;
- ilgari o'zlashtirilgan tushunchalarni rasmiy-mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanib, qayta o'zgartiradi;
- nazariy fikrlash asosida yangi tushunchalarni shakllantiradi.

Mustaqil ta'lim jarayonida har bir talaba yangi o'quv adabiyotlarini o'rganadi, nazariy materialni o'zlashtiradi, bilim berish faoliyatini amaliyot orqali rivojlantiradi, amaliy ko'nikma va tajribalarni shakllantirish orqali o'zida bilimlar tizimini shakllantiradi. Bunda o'quv adabiyotlari asosiy bilim manbalari vazifasini bajaradi. Darslik va o'quv adabiyotlarini o'qish jarayonida talaba turli xil fikrlash faoliyatini amalga oshiradi, o'ziga kerakli ma'lumotlarni izlaydi, ularni bir biriga taqqoslaydi, tasniflaydi va kerakli ma'lumotlarni oladi. Bularning natijasida talabalar o'quv faoliyatida eng muhim xususiyat – mustaqillik shakllanadi[5; 8].

### **Natijalar va muhokamalar**

Shuningdek, o'quv fani bo'yicha tashkil qilinadigan mustaqil ta'lim topshiriqlari shunday tuzilishi kerakki, ular topshiriqni bajarish jarayonida talabalarni erkin ijodiy izlanishga, fikrlashga unday olishi zarur.

Mashhur olimlarning fikricha, oliy ta'lim muassasalarining mohiyati mustaqil ilmiy ishlar bilan tavsiflanadi. Shu sababli, har bir talaba ilmiy ishning samarali uslub-yo'lini o'zlashtirishi, mustaqil ijodiy faoliyatga layoqati va tayyorligini, ilmiy bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi, takomillashtirishi va uni amaliyotda ijodiy qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Ilmiy faoliyat va ta'limni uzuksiz takomillashtirish oliy ma'lumotli har bir mutaxassisning shaxsiy ehtiyojiga aylanishi lozim. Bularidan ko'zlangan asosiy maqsad - talabalarni o'qishning dastlabki yildan boshlab muvaffaqiyatlari ijodiy faoliyat qoidalari va usullari bilan tanishtirish hisoblanadi.

Mustaqil ta'limning to'g'ri mezon va kreativ tashkil qilinishining talabalar uchun foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi [6; 28]:

- Asosiy e'tibor ijodiy ishga qaratilishi;
- Ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- Amaliyot bilan nazariyani bir biriga bog'lashni shakllantirishi;
- O'qish shiddati ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- Ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- Tadqiqot yoki uslubiy faoliyat bilan shug'ullanishga zamin yaratilishi;
- Ongli tushunish va mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishi;
- Ijodiy faoliyatga qiziqishini shakllantirishi;
- Bilimlarni chuqurlashtirishi va kengaytirishi;
- Eng asosiysi talabalarda ijodkorlikni shakllantirishi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda har tomonlama bilimli, ilg'or, yetuk, aniq va mazmunli fikrlay oladigan, yuksak malakali mutaxassislar yetkazishda mustaqil ta'limning o'rni beqiyosdir. Bundan tashqari, Oily

ta'lim muassasalarida talabalar o'quv faoliyatining muhim shakli bo'lgan mustaqil ta'limni to'g'ri va talab darajasida tashlil etilishi talabalarimizni o'zлari tanlagan mutaxassisliklar bo'yicha yetuk raqobatbardosh kadr sifatida kamol topishida muhim o'rinn tutadi. Shu sababli, tepada keltirilgan talab va mezonlardan talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda foydalanish – mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsadga oz bo'lsada erishishga o'z hissasini qo'shishi shubhasizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi PF-5847 -T., 2019 yil 8 oktyabr
2. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. ... ped. f. d. – T.:2007. – 315 b.
3. Rashidova O. "Proper organization of students' independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem", Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali, volume 2, issue 2, 2023, 72-81.
4. Ramazanova Feruza, Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ahamiyati, Diss. Magistr.- Buxoro.2007. 18b.
5. Rashidova O. (2023) "The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270
6. Begmatova D.M., Rashidova O.X. (2024) "Organizing the independent education of students in higher education institutions on the basis of a creative approach", « Journal of new century innovations" international interdisciplinary research journal , volume , issue , 2024, 25-31, DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10618051>